

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Eminchayev	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlar.....	11
G.M.So'fiboyeva	
Boshlang'ich sinflarda STEAM – ta'lim texnologiyasini qo'llashning ilmiy-nazriy asoslari	14
M.M.Baxromov	
Elektron ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	18
A.A.Meliqo'ziyev	
11 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda tavsiya etilgan mashqlar majmuasining samaradorligi	21
R.B.Mirzaev	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda pedagogik maxoratni oshirish	26
A.A.Muhiddinov	
Aylanma mashqlar yordamida oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va samaradorligi	34
Sh.G'.Qodirov	
11-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy rivojlanish xususiyatlari va statistik tahlili.....	38
SH.G'.Qodirov	
O'rta yoshdagi o'quvchilarda chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar samaradorligi tahlili	42
M.K.Aхмадалиева, К.Н.Рахимова, М.О.Балтабаева	
Использование современных технологий в системе образования Узбекистана	46
SH.D.Raxmatjonov	
Faoliyat motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	50
O.B.Tursunov	
Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitishda kompetensiyalarni shakllantirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasi.....	55
S.R.Uraimov	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar orqali rivojlantirish usullari va samaradorligi	58
S.R.Uraimov	
Jismoniy tarbiya darslarida nazariy mashg'ulotlarning samaradorligi.....	62
S.R.Uraimov	
Qishloq maktablarida yuqori harorat sharoitida jismoniy tarbiya darslarini o'tkazish metodikasining ilmiy asoslari va samaradorligi.....	67
R.A.Xamrakulova	
Diplomatik diskursda paralingvistik elementlar tadqiqi.....	71
O.N.Madaminov	
Jismoniy rivojlanganlik - jismoniy statusning mazmuni va uning o'lchamlari tarixi.....	74
S.D.Akzamov	
Futbolchilarning stress boshqaruvi va psixologik chidamliligi	80
Г.Г.Козлова	
Эффективность использования компетентностного подхода в формировании волевых качеств у учащихся старших классов	85
М. К.Рузиева	
Интеграция уроков плавания с экологическим воспитанием	89
Н.Н.Бобожонов	
Интеграция волейбольных упражнений для развития когнитивных навыков у школьников.....	94
Z.N.Usmonov, G.R.Qurbonov	
Tana qismlarining (bo'laklarini) garmonik rivojlanganligini ijobiy va salbiy tomonlari.....	99
J.X.Abdullayev	
O'quvchilar jismoniy tarbiyasining vazifalari, mashg'ulotlarining shakllari, vositalari, darsning mazmuni va tuzilishi	105



UO'K: 740+159.9.072.4331

FAOLIYAT MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ****SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF ACTIVITY MOTIVATION****Raxmatjonov Shohjaxon Dilshodbek o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti, "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

"Ushbu faoliyat motivatsiyasining maqolasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik texnologiya" mavzusini o'rganishga yordam beradi. Maqolada, inson resurslarini boshqarishchi motivatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy va tibbiy yordam, dasturiy bir-biriga bog'lanish va o'zaro munosabati tahlil qilish. Ijtimoiy muhit, jismoniy va do'stlik munosabatlari, shaxsiy ijtimoiy roli, guruhda o'rganish va qo'llab-quvvatlash tizimlari kabi faktorlar, individual tibbiy xususiyatlar, insonlar, ishonch va o'ziga hurmat motivatsiyaning o'ziga xos darajasida ta'sir ko'rsatadi. Maqola ijtimoiy yordam ko'rsatish nuqtai nazaridan faoliyat motivning ishlab chiqarishdagi asosiy mexanizmlar, nazariy yordami bilan aloqasi haqida va motivatsiyadan foydalanish. Ta'lim tizimida, ish joyida va hayotda motivatsiyani tavsiya qilish uchun tavsiyalar beriladi

Аннотация

Помогает изучить тему «Социально-психологическая технология, влияющая на мотивацию деятельности». В статье анализируются социальная и медицинская помощь, программные взаимосвязи и взаимодействия, влияющие на мотивационный процесс менеджеров по персоналу. Такие факторы, как социальная среда, физические и дружеские отношения, личная социальная роль, групповое обучение и системы поддержки, индивидуальные медицинские характеристики, люди, уверенность и самооценка, влияют на определенные уровни мотивации. «таинственное» отношение. В статье речь идет об основных механизмах мотивации производства деятельности с точки зрения социальной помощи, теоретического обеспечения и использования мотивации. Даны рекомендации по стимулированию мотивации в системе образования, на рабочем месте и в жизни.

Abstract

It helps to study the topic "Social-psychological technology influencing the performance motivation article". The article analyzes social and medical care, programmatic interconnections and interactions affecting the motivational process of human resource managers. Factors such as social environment, physical and friendship relationships, personal social role, group learning and support systems, individual medical characteristics, people, confidence, and self-esteem influence specific levels of motivation: 'mysterious' attitude. The article is about the main mechanisms of motivation in the production of activity from the point of view of social assistance, theoretical support and the use of motivation. Recommendations are given to encourage motivation in the educational system, workplace and life.

Kalit so'zlar: trening, elektron, shaxs, ong, motiv, motivatsiya, harakter, temperament, individ, diqqat, sub'ekt, ob'ekt, bilish jarayonlari, renessans, faoliyat, mehnat

Ключевые слова: обучение, электронный, человек, разум, мотив, мотивация, персонаж, темперамент, индивидуальный, внимание, предмет, объект, Когнитивные процессы, ренессанс, деятельность, работа.

Key words: training, electronic, person, mind, motive, motivation, character, temperament, individual, attention, subject, object, cognitive processes, renaissance, activity, work

KIRISH

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.²

² "O'zbekiston" ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal №2/2021. 14-bet

PEDAGOGIKA

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va oldimizga qo'ygan ulkan strategik maqsadlar, xususan, Uchinchi Renessans sari bosilgan dadil qadamlar aholi, ayniqsa, yoshlarning har qanday soha va yo'nalishda jahonda raqobatlasha oladigan dunyoqarash va g'ayratni talab etadi. Shuni inobatga olgan holda yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishda motivatsiya va aniq maqsadning ahamiyati muhimligiga e'tibor qaratilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani va BMT minbaridan turib, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" – degan fikrlarni bildirgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi.³

Mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e'tibor va ularga bildirilayotgan yuksak ishonch ularni har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishlari zarurligini anglatadi. Buning uchun ularning ruhiyatida yuksak marallarni egallashga da'vat etuvchi motivatsion dunyoqarashni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Faoliyat motivatsiyasining shakllanishida oliy ta'lim muassasalarining o'rnini beqiyos. Shu sababdan ushbu ijtimoiy muhitda yoshlarni motivatsion qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-psixologik nazariyalarini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

faoliyat motivatsiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida ma'lumot olmasdan turib, faoliyat motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar haqida mulohaza yuritish noto'g'ri bo'ladi.

Jahon psixologiyasi fanida A.G.Aleksandrov, B.G.Ananyev, I.A.Vasilyev, M.B.Bo'rodina, E.T.Ilin, V.I.Kovalyev, A.N.Leontev, X.Xekxauzen, R.E.Frenkin, J.Espenbeck, M.Ford, A.N.Maslow kabi olimlar tomonidan faoliyat, motivlar, motivatsiya va ular shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu jumladan E.G.G'oziyev, B.R.Qodirov, F.I.Haydarov, O.E.Hayitov, A.A.Fayzullayev, E.Z.Usmonova, Z.F.Kamaletdinova hamda boshqa Respublikamizning taniqli olimlari tomonidan bu sohada muayyan izlanishlar olib borilgan.

Birinchi marta "motivatsiya" atamasini A.Shopengauer "Yetarli darajadagi sababning to'rtta prinsipi" maqolasida ishlatadi. Shundan so'ng bu atama ijtimoiy hayotda inson va hayvonlar xatti-harakatining psixologik tomonlarini tushuntirishda mukammal ravishda kirib keladi.⁴ E.N.Bakanov, V.A.Ivannikov (1983); F.E.Vasilyuk (1984); S.P.Manukyan (1984); S.L.Rubinshteyn (1989); A.A.Fayzullayev (1987, 1989); Magomed-Eminov (1998); L.S.Vigotskiy (2004); A.Maclow (2008) va boshqalar turli motivlar bo'yicha izlanishlar olib borib, psixologiya sohasini rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shgan.⁵

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi:

1) Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv motivatsiyasi ahamiyatini o'rganishga xizmat qiladigan "Talabalar o'quv motivatsiyasini o'rganish" metodikasi (A.A.Rean va V.A.Yakuninlar tomonidan tavsiya qilingan);

2) "Bilim olishga yo'naltirilgan" metodikasi (E.P.Ilin va N.A.Kurdyukovalar tomonidan tavsiya etilgan);

3) "Oliy o'quv yurtida o'qish faoliyatining motivatsiyasi" metodikasi (T.I.Ilina tomonidan tavsiya qilingan);

4) "Talabalarning o'quv fanlariga bo'lgan munosabatini aniqlashga yo'naltirilgan" ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (G.D.Qo'ldosheva);

³ Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 236-bet

⁴ Qo'ldosheva G.D. Talabalar o'quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar: Psix.fan.nom. dis. - Toshkent: TDPU. 2011. - 14 b.

⁵ Qo'ldosheva G.D. Talabalar o'quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar: Psix.fan.nom. dis. - Toshkent: TDPU. 2011. - 38 b.

5) Tadqiqotda olingan empirik materiallarning validligi va ishonchliligini aniqlash uchun Styudent, korrelatsion va faktorli tahlil kabi matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

NATIJA VA XULOSA

Oliy ta'lim muassasalari (1-3-bosqich) talabalarida faoliyat motivatsiyasi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va o'quv faoliyati motivlarining tashxisi

Z.T.Nishonova (2005) ishlab chiqqan treninglarda o'quv faoliyatining guruhviy shakllari amalga oshirilgan. Bu esa, o'z navbatida, ta'limda har bir o'quvchi uchun yuksak faollik va mustaqillikni ta'minlaydi. Jumladan sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun ham qulay vaziyat yaratiladi, har bir sub'ekt o'zini o'zi namoyon qilish ehtiyojini qondirish imkoniyati vujudga keladi.

A.M.Jabborovning (2006) izohlashicha, o'zbek maktabi o'qituvchisining milliy-psixologik qiyofasi va uni belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- o'qituvchining atrofda qilargana xushmuomalaligi va hurmat bilan munosabatda bo'lishi;
- o'qituvchining o'zini tuta bilishi va amaliyotchiligi;
- o'qituvchining (ongining) o'z millatiga xosligi; - o'qituvchining ijtimoiy dadilligi.

Olimning yuqoridagi fikrlaridan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi asosiy yetakchi shaxs bo'lib, u talabalar ongida bilim olishga nisbatan bo'lgan ijobiy motiv va motivatsiyani shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

V.M.Karimova (1998, 2002) o'z asarlarida motiv va motivatsiya muammosiga ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan qarashni ilgari suradi.

E.G.G'oziyevning (2001) mulohazalariga ko'ra o'qituvchi va talabalarning hamkorlik faoliyati uch bosqich (davr), sakkiz tarkibiy qism, yetti shakl va uch mezonidan tashkil topishi mumkin.

U hamkorlikdagi o'quv faoliyati tarkibiga quyidagilar kirishini maqsadga muvofiq deb belgilaydi: motivatsion-ma'naviy, taxminiy qidiruv, taxminiy izlanuv, operatsional ijroi, nazorat tuzatuv, tashkiliy-ijtimoiy, tashkiliy predmetli kabilar kiritilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

E.G.G'oziyevning (2003) motivatsiyaga bag'ishlangan ko'pgina asarlari muammoning metodologik, nazariy jabhalarini tekshirishga keng imkoniyat yaratadi. Uning "O'quv faoliyatini boshqarish", "Oliy maktab psixologiyasi",

"Hamkorlik psixologiyasi", "Kasb psixologiyasi", "Shaxs va kasb tanlash" kabi asarlari bu sohadagi muhim tadqiqot natijalari hisoblanadi.

Har qanday mukammal egallangan kasb jamiyatda inson uchun muhim o'rinni egallaydi. Mukammal kasb egasi bo'lish omillaridan eng muhimi o'quv jarayoni hamda o'qus jarayonida shakllanib boradigan motiv va motivatsiyalar hisoblanadi. Bunda oliy ta'lim muassasasida talabani o'rab turgan ijtimoiy muhit, shaxslararo ijtimoiy munosabat va guruhviy tayyorgarlik kabi o'ziga xos xususiyatlarni qamrab oladi. Bo'lajak mutaxassislarining amaliy faoliyatida zarur bo'lgan sharoitlarga moslasha olish, ruhan tayyorlanish, kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirib borish muhim jihatlardan hisoblanadi. Bunda o'quv jarayoni, katta va kichik guruhlardagi muhit hamda talaba va o'qituvchilarning o'zaro munosabati, hamkorligi ularning amaliy faoliyatida muhim jihat bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatda irodaviy zo'r berish quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan holda namoyon bo'ladi. Mushaklarning tarang holatidagi irodaviy zo'r berish jismoniy mashqlarga bog'liq. Mashqlarda har vaqt irodaviy zo'r berish namoyon bo'ladi. Diqqat kuchaytirilgan paytidagi irodaviy zo'r berish odatda ixtiyoriy diqqat irodaviy zo'r berishni talab qilib, ma'lum vaqt davomida zarur ob'ektga qaratiladi. Toliqishni charchash bilan bog'liq bo'lgan irodaviy zo'r berish, kun tartibiga (rejim) bo'ysinish bilan bog'liq bo'lgan irodaviy zo'r berish. Qo'rqish hissini yengish bilan bog'liq bo'lgan irodaviy zo'r berish. Irodaviy harakat sportchilarda tayyorgarlik jarayonida maqsadga erishishlariga qaratilgan har xil to'siq va qiyinchiliklarni bartaraf qilishni talab qiladigan harakatdir, texnik, taktik, jismoniy nazariya. Sport faoliyatidagi bir-biridan farq qiluvchi 2-ta asosiy qiyinchiliklar mavjud: ob'ektiv qiyinchiliklar va sub'ektiv. Ob'ektiv qiyinchiliklar: ma'lum sport turi uchun spetsifik to'siqlarni yengishni shart qilib qo'yadi va bu sportchi ayni sport turini egallay olmaydi. Bu to'siqlar hamma sportchilar uchun bir xildir. Sub'ektiv qiyinchiliklarga asosan sportchidagi ma'lum sport turining xususiyatiga trenirovka shartiga, sport musobaqasiga bo'ladigan sportchining shaxsiy munosabatlari kiradi. Qiyinchiliklarni bataraf qilish metodikasi, irodaviy sifatlarni tarbiyalashdan iborat bo'ladi: ishonirish, ibrat ko'rsatish metodi orqali, har xil sharoitda trenerovka va musobaqalar o'tkazish, musoboqa kurashlarida tajribalar to'plash, o'z o'ziga buyruq berish. Sportchi psixologik

PEDAGOGIKA

jixatdan tayyorlanishda ortiqcha asab ko'zg'alish jarayonlarini yengishga o'rganish lozim. Chunki ortiqcha asab qo'zgalish mashqlangan holatiga (sport formasiga) yomon ta'sir etadi, sportchining yaxshi natija ko'rsatishiga halaqat beradi. Keyingi vaqtda ortiqcha asab qo'zgalishini kamaytirish uchun sportmenlar o'z - o'zini ishonitirish mashg'ulotidan foydalanayaptilar. Jumladan Tokiodagi Olimpiadada Polsha shtangistlari o'zo'zini ishonitirish mashg'ulotidan juda keng foydalanadilar va shu yaxshi natijalarga olib keldi. Auto-o'zim-Genno-yaratama, erishaman-grekcha so'z bo'lib, bu metod, ya'ni o'z-o'zini ishonitirish metodi ikkinchi signal tizimiga tayanadi, ma'lum so'zlar bilan sportchi o'zidagi ortiqcha asab qo'zg'alishlarini kamaytiradi. Aytiladigan so'zlar mushaklarni bo'shashtiradi, nafas olishni chuqurlashtiradi va boshqa fiziologik jarayonlarni normallashtiradi. Sportchi maxsus trenirovka qilish natijasida o'zini ishonitiraoladi. Buning uchun avvalo metodikasini bilib olib va 3-4 marta mashq qilish lozim. Shundagina ma'lum natijaga erishish mumkin. Mashg'ulotni o'tirib va yotib bajarish mumkin. Albatta yotib bajarish ustun, chunki bunda mushaklarning bo'shashishi onson, o'tirib bajarish qulayroq, nega deganda ko'pingcha yotishga imkoniyat bo'lmaydi. Hozircha sportchilar qullayotgan mashg'ulot aslida shifokor Shul'bsning tizimidan olingan. U asosan kasallar uchun ishlatgan (Rotkevich. Polysha psixologi).

Talabalar o'quv motivlari bilan guruhiiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik natijalari

		X	S.O.	T
1.	Guruhning bilimlarni o'zlashtirishga ta'siri	3,64	0,819	0,897
		3,73	0,595	
		3,91	0,902	-2,54*
2.	Guruhdagi o'zlashtirmaydigan talabalarning o'quv jarayoniga salbiy ta'siri	3,79	1,01	-1,32
		2,94	0,971	
		3,13	1,078	-2,56
3.	Guruhdagi faol talabaning ta'lim jarayonidagi tengdoshlariga ta'siri	4,03	1,003	0,072
		4,02	0,78	
		3,76	1,03	1,85
4.	Talabaning tengdoshlari bilimlarini o'zlashtirishga ta'siri	3,38	0,78	0,699
		3,46	0,87	
		3,45	1,22	-0,44
5.	Guruh a'zolarining fanlarni o'zlashtirishdagi o'zaro hamjihatligi	3,72	1,02	2,75**
		3,31	1,09	
		3,46	0,98	1,68
6.	Talabaning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini boshqa tengdoshlaridan farqi	3,69	0,89	4,88**
		3,15	0,68	
		3,46	0,98	1,67
7.	Fanlarni o'zlashtirishda guruhning boshqa guruhlar bilan solishtirilishi	3,45	0,873	5,31**
		4,01	0,80	
		3,42	1,09	0,14
8.	Talabaning bilimlarni o'zlashtirishdagi faollik darajasi	3,01	0,95	1,76
		3,28	1,15	
		3,51	1,20	-3,27**
9.	Talaba guruhning umumiy mavqeini qadrlashdagi kurashuvchanligi	4,10	0,91	0,56
		4,16	0,69	
		3,85	0,96	2,36*
10.	Guruhda talabalarning bilimlarni o'zlashtirishda o'zaro qo'llab-quvvatlash an'anasini shakllanganligi	3,64	1,05	2,76**
		3,27	1,11	
		3,49	1,07	0,89
11.	O'qituvchilarning talabalar bilimlarini o'zlashtirishdagi ta'siri	4,16	0,73	2,96**
		3,85	0,86	
		3,90	0,88	2,23

XULOSA

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z-o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz

va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi. Masalan, mas'uliyatli imtixon topshirish jarayonini olaylik. Ba'zi talabalar imtixon oldidan juda qayg'uradilar, hattoki, qo'rqadilar ham. Ular uchun imtixon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo'lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman beg'am bo'lib, sira koyimaydilar. Tabiiy, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatning samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shaxsdagi da'vogarlik darajasi ham ta'sir qiladi. Da'vogarlik darajasi yuqoriroq bo'lganlar bilgan-bilmaganini isbot qilishga urinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rakhmatdjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROVIDING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF THE ATHLETE// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. International scientific online conference. Canada. Part 2, 23.01.2022. 1-3
2. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 11, Nov.(2022). 117-121 pages.
3. QURBONOVA Said Miralimjanovna, RAXMATJONOV Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //MAMLAKATIMIZ PSIXOLOGLARINI ISHLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATDA MUOMALA MUAMMOSINING TALQINI// Journal of Pedagogical and Psychological Studies. Vol. 1. № 5, (2023). 99-103 pages.
4. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS// IQRO JURNALI № 2. 04.2023. 503-511 betlar.
5. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li //XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. Vol. 1. № 12, 2022. 39-47 pages.
6. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA// International Journal of Economy and Innovation. Volume: 30. 2022. 66-70 pages.
7. Rakhmatdjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS// IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. Vol. 2 No. 11 (2022). 215-221 betlar.
8. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi// American Journal of Social and Humanitarian Research, Vol. 3 No. 11 (2022). 256-259 pages.
9. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //TOLERANTLIK SHAKLLANAYOTGAN SHAXS MODELINING TAVSIFI// International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». VOLUME 2 / ISSUE 5 /2023. 761-764 pages.
10. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li. (2023). PSIXOLOGIYADA MOTIVATSIYA TURLARI, NAZARIYALARI VA TAHLILI. Научный Импульс, 1(10), 665-670.
11. Raxmatjonov, S. (2023). DESCRIPTION OF THE PERSONALITY MODEL FOR FORMING TOLERANCE. *Modern Science and Research*, 2(5), 761-764. Dilshodbek o'g'li R. S. TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 30. – C. 66-70.
12. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 39-47.
13. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon, and Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li. "XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 1.12 (2022): 39-47.
14. Dilshodbek o'g'li R. S., Boxodirjon o'g'li V. A. XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 39-47.
15. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2023). SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS. *IQRO JURNALI*, 2(2), 503-511.
16. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon. "SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS." *IQRO JURNALI* 2.2 (2023): 503-511.
17. Dilshodbek o'g'li R. S. SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 503-511.